

2021- yilning yanvar-iyul oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari




2 599,9
mlrd. soʻm


106,1 %

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Navoiy viloyatida jami **2 599,9 mlrd. soʻmlik** qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 635 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **108,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **107,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **105,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,0 %**) o'sishidir.



Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.08.2020- yil	01.08.2021- yil	
	Navoiy viloyati	1 527	1 635	107,1
	Navoiy sh.	417	479	114,9
	Zarafshon sh.	121	134	110,7
	tumanlar:			
	Karmana	251	271	108,0
	Konimex	39	36	92,3
	Qiziltepa	225	235	104,4
	Navbahor	181	189	104,4
	Nurota	98	106	108,2
	Tomdi	39	40	102,6
	Uchquduq	58	50	86,2
	Xatirchi	98	95	96,9


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (29,3 %), Karmana (16,6 %) va Qiziltepa (14,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **560,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **86,6** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **21,6** % ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **56,5** % ni yoki 2020- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **13,3** % ga ko'paygan), Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,2** % ni, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **273,5** % ga ko'paygan) va Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,7** % ni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **94,0** % ga kamaygan), ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlaringning umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **51,5 %** ga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,9** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **113,7 %** ni tashkil etgan holda **1 340,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **26,9 %** ni tashkil etdi yoki **699,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **112,2 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **441,2** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 158,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **17,0 %** va **83,0 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-iyul oyida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	2 599,9	2 158,7	100,0	441,2	100,0
Navoiy sh.	718,4	676,5	31,3	41,9	9,4
Zarafshon sh.	483,2	83,4	3,9	399,8	90,6
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	247,2	247,2	11,4		
Konimex	40,6	40,6	1,9		
Qiziltepa	406,0	406,0	18,8		
Navbahor	211,4	211,4	9,8		
Nurota	165,9	165,9	7,7		
Tomdi	20,9	20,9	1,0		
Uchquduq	42,5	42,5	2,0		
Xatirchi	263,8	263,8	12,2		

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-iyul oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,5 % ni yoki **1 989,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

76,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **560,2** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 21,6 % ni tashkil etdi.

21,6 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 340,2** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 51,6 % ni tashkil etdi.

51,5 %

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **699,5** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 26,9 % ni tashkil etdi.

26,9 %




**2021- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Navoiy viloyati	2 599,9	106,1	1 962,4
Navoiy sh.	718,4	107,7	526,1
Zarafshon sh.	483,2	101,9	391,0
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	247,2	108,5	199,7
Konimex	40,6	101,3	21,9
Qiziltepa	406,0	107,3	310,0
Navbahor	211,4	107,2	135,9
Nurota	165,9	106,3	111,9
Tomdi	20,9	107,8	10,0
Uchquduq	42,5	109,8	30,0
Xatirchi	263,8	104,8	225,9

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **21,7 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **12,8** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **15,0** punktga ko'payib, **72,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyul oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **1,3** punktga kamayib, **5,8 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **19,7 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **2,2 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **80,3 % (4,3 % ko'payish)** ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **2,6 %** ga kamaydi va **28,4 %** ni tashkil etdi. Qolgan **71,6 %** ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **18,9 %** ga ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-iyul oylarida**


mldr. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	2 599,9	1 989,5	363,7	246,7
Navoiy sh.	718,4	570,5	120,0	27,9
Zarafshon sh.	483,2	285,1	92,0	106,1
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	247,2	204,6	30,5	12,1
Konimex	40,6	31,3	5,5	3,8
Qiziltepa	406,0	355,1	36,1	14,8
Navbahor	211,4	154,3	29,3	27,8
Nurota	165,9	128,8	17,4	19,7
Tomdi	20,9	15,5	2,3	3,1
Uchquduq	42,5	24,7	8,5	9,3
Xatirchi	263,8	219,6	22,1	22,1


*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari



Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da



2021- yil
yanvar-iyul


Navoiy viloyatida qurilish ishlari

16


Joriy yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiy hajmida eng yuqori ulush Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 28,7 % ni yoki **570,5** mlrd. so'm), shuningdek, Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 17,8 % ni yoki **355,1** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 14,3 % ni yoki **285,1** mlrd. so'm) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmidan 33,0 % ni yoki **120,0** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 25,3 % ni yoki **92,0** mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 9,9 % ni yoki **36,1** mlrd. so'm) qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**



**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 43,0 % ni yoki **106,1** mlrd. so'm), Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 11,3 % ni yoki **27,9** mlrd. so'm), Navbahor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 11,2 % ni yoki **27,8** mlrd. so'm) qayd etildi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mIrd. so'mda

Navoiy sh.
718,4



Zarafshon sh.
483,2



Qiziltepa t.
406,0



Xatirchi t.
263,8



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng
yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy
shahri (718,4 mIrd. so'm), Zarafshon shahri
(483,2 mIrd. so'm), Qiziltepa (406,0 mIrd.
so'm), Xatirchi (263,8 mIrd. so'm) tumanlariga
to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73